

BO‘LAJAK BOSHLANGICH SINIF O‘QITUVCHILARI VA O‘QUVCHILARINING O‘ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

ADPI pedagogika va psixologiya
kafedrası o‘qituvchisi
Xo‘jamov Bek Alimovich

Annatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf oqituvchilari va o‘quvchilarining o‘zaro munosabatlari hamda ularning individual psixologik xususiyatlari, yoshga hos xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ta’lim-tarbiya, kichik maktab yoshi, axloq, ong, qiziqish, jamoa, or-nomus, mehr-oqibat

Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog‘li faol munosabatda bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga hizmat qilishiga bog‘liq ekanini hamisha yodda tutishimiz va biz bolalarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma’naviy - ahloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog‘lom bo‘lishi uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur. Buninh uchun o‘zgarishlarni o‘zimizdan boshlamog‘imiz zarur. Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e’tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Ma’naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi. Har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash, ularga ta’lim berish ishlarini o‘qituvchilar amalga oshiradilar. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilar har tomonlama bilimli va yosh davrlariga hos pedagogik va psixologik bilimlarni chuqur bilmogi zarur. Ayniqsa qaysi yosh yoki qaysi sinf bilan ishlasa o‘sha o‘quvchilarning psixologik hususiyatlari, holatlari va qiziqishlarini bilishi va ta’lim jarayonida ularni inobatga olib yondashishi kerak.

Kichik maktab yoshi davrida bola shaxsining shakllanishi ahamiyatli hisoblanadi. O‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to‘liq ijobiy asos bo‘ladi. Buning natijasida bolaning o‘z-o‘zidan oilasi, o‘qiyotgan sinfi va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini anglay boshlaganini ko‘rish mumkin. Yangi faoliyatga o‘tish o‘quvchi bolaning o‘z asosiy faoliyatiga yangi munosabatni paydo qiladi. Unda burch hissi o‘sa boshlaydi. U o‘qish shart ekanligini va u uning burchi ekanligini, belgilab qo‘yilgan qoida va talablar bajarilishi shartligini anglaydi. O‘zini haqiqiy o‘quvchidek his qilgan holda unda yaxshi o‘qishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning axloqiy onglari I va IV sinfdagi o‘qish mobaynida muhim o‘zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi va bola o‘zini o‘zi anglay boshlaydi. U o‘ziga xos bo‘lgan yaxshi-yomon xususiyatlarni bilmasa ham, lekin u o‘zini —Menligini his qiladi. O‘zining vazifasi, maqsadi, uni bajarish lozimligi, uyga berilgan vazifalarni bajarish, takrorlash uning burchi ekanligi kabilarni anglab yetadi. Bu yoshdagi bolalarni maktab dasturiga kiritilmagan juda ko‘p atrof-muhit hodisalari haqidagi bilimlar qiziqtiradi. Bu qiziqishlar bolaning ko‘pincha e’tiborga olinmaydigan ijodiy o‘yinlarga nisbatan qiziqishlarida ham namoyon bo‘ladi. Bunday o‘yinlarda uning ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi. Qiziquvchanlik kichik maktab yoshidagi bolalarning keng aqliy faolligini namoyon etilish shakli hisoblanadi. Vatanga kerakli inson bo‘lish uchun o‘qishning muhimligi va ahamiyatini bilishi uchun ochiqlik, ishonuvchanlik, ustozining barcha topshiriqlarini bajarishga tayyorlik xususiyatlari keng ijtimoiy burch motivlari, ma’suliyatlilik samarali shartlar hisoblanadi. Maktab ta’limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan, bilim egallashga nisbatan qiziqishlar, intellektual qiziqishlar sezilarli darajada rivojlanadi. Psixologlarning ta’kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg‘iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo‘ladi. III - IV sinflarda esa sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqliklarni bilib olish uchun bo‘lgan qiziqishlar rivojlanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqishlarida samarali o‘qish uchun halaqit beruvchi qator salbiy xarakteristikalari ham mavjud. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning qiziqishlari:

- yetarlicha amaliy natija bera olmaydi;
- qatiy emas, vaziyatli;
- tez qondiriladi va ustozning qo‘llab-quvvatlashisiz tez so‘nadi;

-o’quv materiali va topshiriqlar o’quvchining joniga tez tegadi va charchashni yuzaga keltiradi;

– kam anglanilgan, o’quvchining ma’lum bir predmetdagi nima yoqishini va nima uchun yoqishini aytib bera olmasligida ko’rinadi;

- umumlashtirishning pastligi, bir yoki bir nechta predmetlarning tashqi belgilarigagina qarab umumlashtirish;

-o’quvchini o’qishning o’quv faoliyatining usullariga emas, balki natijalariga yo’nalganligi. Kichik maktab davrining so’ngiga qadar o’quv ishlaridagi qiyinchiliklarni yengishga nisbatan qiziqish yuzaga kelmaydi (bu holat ko’pincha o’qituvchilarning o’zlari tomonidan amalga oshiriladi, ya’ni aksariyat hollarda o’quvchining qiyinchiliklarni yengishga harakati emas, balki natija baholaniladi). Bularning barchasi kichik maktab yoshida qiziqishlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bo’lib, ba’zan o’qishga nisbatan yuzaki munosabatni keltirib chiqarishi mumkin.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’quvchilarning shu kabi pedagogik va psixologik hususiyatlarini yaxshi bilmog’i kerak. Chunki o’quvchi qiziqishlari va psixologik holatlar va hususiyatlari doimiy ravishda o’zgarib boradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang’ich sinf o’quv faoliyatining asosiy vazifasi - bu o’quvchilarni —o’qishga, bilim olishga o’rgatishdir. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida ta’limning ta’sirida jiddiy o’zgarishlar yuz beradi. Bu o’zgarishlar ularni hayotlarining ma’suliyatli davri bo’lmish o’smirlik davriga o’tish uchun tayyorlaydi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo’lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o’z-o’zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o’qituvchi bilan bo’ladigan munosabati katta ta’sir ko’rsatadi. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o’rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta’lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. I – IV sinf o’quvchilari o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish, turli materiallardan har xil buyumlar yasash, o’simliklar ekib o’stirish, uydagi yumushlarga qatnashish kabi bir qancha ishlarda ishtirok etadilar va bu sohada dastlabki ko’nikma va malakalarni hosil qiladilar.

ADABIYOTLAR:

1. SH.A.Do’stmuhamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, SH.K.Karimova, SH.T.Alimbaeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. darslik T- 2013
2. Amonashvili Sh.A.Obuchenie.Otsenka.Otmetka. –M., 1980.
3. Anan’ev B.G. Izbrannyye psixologicheskie trudy. :V 2 t.-M. 1980.T 2.
4. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.
5. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. Izd. vtoroe, dop., ispr. i pererab. - M.: Logos, 2002.- 384 s.